

## ISTEHZO USULINI SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOLARINING BADIY TALQINIDA KO'RINISHI

Saitov Suxrob Djumaydillayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti kafedrasи ingliz tili  
fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10511956>

**Annotatsiya.** Shaxs va jamiyat o'rtaqidagi munosabatda ibratlilik tamoyiliga tayangan holda istehzoning roli, unig tabiat, muallif va obrazlarning asl maqsadini, ko'zlangan natijaning tub mohiyatini ochib berishdagi imkoniyatlari hamda istehzo usulining barcha asarlarda birdek qo'llana olish imkoniyati, uning shaxs va jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni ko'rsata olishdagi ahamiyati, badiiy asarda tutgan o'rni izohlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** istehzo usuli, o'ziga ortiqcha bino qo'ygan, Maymun yetaklagan odam, epik pafos sifati, Burjuaziya hukmron bo'lgan jamiyat, byurokratiyaning ustuvorligi.

Kishilarda, jamiyatda mavjud bo'lgan kamchilik va nuqsonlar ustida hukm chiqarish uchun istehzo usulidan foydalilanadi. Istehtzo ikki xil ko'rinishda badiiy asarlarda namoyon bo'ladi: obraz istehzosi va ijodkor istehzosi. Istalgan bir badiiy asarda istehzoni uchratishimiz mumkin. Istehtzo turli xil pozitsiyalarda yuzaga keladi: u achchiq kinoya shaklida, yechim tarzida, obrazlar o'y-xayollari va boshqa tarzda ifodalanadi. Odatda, shaxs ma'lum bir jamiyatda yashar ekan, avvalo, uning istehzosi shunga nisbatan qo'zg'aluvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. O'Genri asarlarining barchasida ham u yoki bu darajada istehzo elementlari ko'zga tashlanadi, ibratli xulosalar chiqarishga odatda ko'makdosh bo'ladi.

O'Genrining "Diydor" hikoyasidagi ota va bola o'rtaqidagi munosabatda istehzo ham obraz, ham muallif holatida namoyon bo'lsa-da, ammo farzand munosabatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bola otasiga pul vositasida istehzo qiladi, uning o'zi uchun vaqt ajratishini, o'zining ham yosh bola ekanligiga ishora qiladi.

"Foydali qo'lyozma" hikoyasidagi holatda istehzo muallifning vaziyatni taftish qilish asnosida ko'zga tashlanadi. Bunda shikoyatchi davlat amaldorlariga nisbatan istehzoni amalga oshirsa, muharrir qog'oz idorasidagi odamlarga nisbatan shunday munosabatda bo'ladi. Istehtzoning obrazlar orasidagi munosabatda go'yoki yashirindek tasavvur uyg'otsa-da, kitobxonga bu holat aniq anglashilib turadi. Bunda shaxsning jamiyatdagi hodisalarga bo'lgan istehzosi ham ayon bo'lib qoladi.

"Yo'l aylanib" hikoyasidagi istehzo davr va jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq emas, bunda oilaviy munosabatlarda er va xotin munosabatlarining silsilasi barq urib turadi. Er o'z xotiniga nisbatan doim qo'pol munosabatda bo'ladi, xotin esa eriga istehzo tarzda kitoblardan panoh topadi. Erning istehzosi esa xotinining go'yo unga yaxshi munosabatda bo'lmayotgani zamirida yuzaga keladi. Xotin erini qo'shni ranchoga kuzatayotgan holatidagi tasvirlar, uning eriga bo'lgan munosabatidagi istehzo ko'rinishlari insonlar o'rtaqidagi muomala jarayonining qanday mezonlar asosida bo'y ko'rsatayotganini ifodalab keladi. Er hamda xotin bir-birlariga mehrsiz emaslar, faqatgina har ikkisi ham bir-biriga e'tiborsizligi yuzasidan bir qadar aziyat chekadi.

Olim Otaxonning "O'lim shiddati" hikoyasida har qanday zamon va makonda yashayotgan odam qanday jamiyatda yashashidan qat'iy nazar qazoyi qadardan qutula olmasligiga ishora qilingan. Bir podshoh o'z a'yonlariga kiyim keltirib berishni buyuradi, har qancha kiyim olib

kelishmasin, shohga bularning hech biri yoqmaydi, to shohga ma'qul keladigan kiyim kelmaguncha shu holat davom etaveradi. Ot tanlash masalasida ham xuddi shunday hodisa ro'y beradi, shoh eng bezirim va antiqa kiyimlarni kiyib, eng yaxshi otga minib oladi, u kibrga beriladi, chunki uning burniga o'sha paytda shayton dam solgan edi, u oyog'i ostini ko'rmas, hech kimning gapiga quloq ham osmas edi. U yo'lida ketayotgan mahalda ro'parasidan bir kishi chiqib qoladi, va u kishi shohdan hojatini chiqarishni so'raydi, shoh uning gaplariga quloq solmaydi, u odam shohning otining arqonidan ushlab, yo'lga ko'ndalang turib oladi, undan kim ekanligini so'raganida jon oluvchi Azroil ekanligini so'raydi, shunda chol esankirab qoladi, otdan tushishi lozimligini o'z yaqinlaridan, ahlidan rozilik tilashi zarurligini uqtirmoqchi bo'ladi, jon oluvchi esa hosir unga hech kim va hech nima yordam bera olmasligini ta'kidlab qo'yadi. Podshohning joni uziladi hamda u qurigan bargday shilq etib qulaydi. Shundan so'ng jon oluvchi farishta bir bechora odamga unga ehtiyoji borligini so'raganida u jon-jondeb qabul qilajagini aytadi. O'zining jon oluvchi ekanligini aytganida ham, bechora kishi bundan ham xursand bo'ladi, faqatgina bitta istagi bor ekanligini so'raydi. Unga biroz muhlat berishini, u tahorat qilib, namoz o'qishi lozimligini, Allohning rizoligini so'ramoqchilagini aytadi, namoz o'qish paytida jonini olishini o'tinadi. Har bir inson bizga shuncha ne'matlarni bergen Yaratganning roziligin olishi eng asosiy maqsad ekanligini uqtiradi. Jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning yuzaga kelishi, odamlarning mol-mulkka bo'lган hirsi, kibr kabi yomon illatlar dunyoda ko'pgina noxushliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Nazar Eshonqul o'zining "San'at" hikoyasida jamiyatning haqiqiy suratini chizadi, Shohning yoniga bir odam kelib, o'zining rassom ekanligini aytadi. U shunchalik mo'jizaviy rassom bo'ladiki, istalgan narsaning suratini chiza olardi. Shunda shoh undan mamlakatida tinch-osoyshtalik bo'lishini, noroziliklar barham topishini, hamma unga itoat qilishi kerakligini tasvirlaydigan bir surat chizib berishni so'raydi. Rassom shunday surat chizadi. Yurtda barcha shohga itoat etadigan, och-nahormi, yupunmi bari holatlarda norozilik bildirmaydilar, hamma har qanday sharoitda ishlab, o'z ishlari bilan ovora bo'lib yuraveradilar. Bu ramziy hikoya bo'lib yurt boshidagi odam xalqini qanday ko'rmoqchi bo'lsa, undan qanday munosabatni kutmoqchi bo'lsa, o'zi ham xuddi shunday bo'lishiga ishora qilingan. Yana bir qashshoq rassom malikaga oshiq bo'lib qoladi, uning hajrida dalli-devona bo'ladi, uni kuylab ko'chalardan sarson-sargardon kezib yuradi. Uning bu holi malikaning qulog'iga yetib boradi va uni olib kelishlarini buyuradi. Rassom yigit keladi, kiyimlari uvada, juldur, lekin ko'zida uchqin chaqnaganday nur zohir edi. Shunda malika undan o'zining suratini chizib berishni, chizganda ham xuddi o'ziga o'xshashi shartligini ta'kidlaydi, agar shu ishni amalga oshira olsa, unga tegishga roziligin aytadi. Yigit ishga kirishadi, yanada qashshoqlashib ketadi, hech narsa uni maqsadidan qaytara olmaydi, u kechani kecha, kunduzni kunduz demay mashaqqatli mehnat qiladi, kiyim-boshlari avvalgidan ham battar juldur qiyofa kasb etadi. Yillar o'tadi, malika rassom yigitning kelmaganining sababi sifatida xuddi birinchi ko'rishganlari kabi uning ustidan kulishga keladi. Kelib ne ko'z bilan ko'rsinki, rassom yigit yana ham yosharib ketgan, yuzlaridan nur yog'ilib turardi, uning oldida esa malikaga o'xshagan bir kishi turardi. Yo'q, yo'q, u malikaga o'xshagini bilan undan yoshroq, undan ko'r kamroq, undan chiroyli, undan jozibaliroq ko'rinar edi. Buni ko'rib malika lol bo'lib qoladi. Yigit esa malikaga go'zallikni uning qiyofasida ko'rganligini, shuning uchun ham shunday san'at asari yarata olganligini so'zlab, qizning qo'lidan tutib o'z uyiga kirib ketadi. Bundan chiqariladiga xulosa, shundan iboratki, biz qalbimizda dunyoning, odamlarning, bariki xilqat bor uni o'z qalbida

qanday tasvirlasa, u shunday ko'rinish kasb etadi. Inson jamiyatdan ezguliklarni qidirishi, ularning ortishi uchun o'zining hissasini qo'shishi kerak.

"Kaktus" hikoyasidagi istehzo elementlari ichki tuyg'ular yo'sinida yuzaga kelgan. Trisdal qiz ketganidan so'ng o'y-xayollar girdobida qoladi, hamma aybni o'zidan emas, o'zgadan qidirishga harakat qiladi, uning barcha his-tuyg'ulari o'zini o'zi tashxis qilish yo'lidan emas, balki boshqalarni aybdor qilish yo'sinida tasvirlangan. Bunda Trisdalning takabburligi, o'ziga ortiqcha bino qo'yganligi, har qanday vaziyatda o'z qarichi yuzasidan munosabatda bo'lishi istehzoli tasvirlangan. Bunda obrazlar orasidagi istehzo yaqqol ko'zga tashlanmasligi mimkin, biroz muallifning obraz holatiga nisbatan istehzosi yaqqol bo'y ko'rsatib turibdi. Bilmaydigan narsasini bilaman deyish. O'zini emas, doimo boshqalarning kamsitish Trisdalning eng katta fojiasidir. U ispan tilini bilmasdan qizga bilishini aytadi, bu bilan qizning pokiza yuragi ham unga ishonadi va unga ishora jo'natadi, bu ishorani tushunmagan Trisdal o'z yog'ida o'zi qovurilib qoladi.

"Bekatda" hikoyasidagi qiz obrazida uning jamiyatdagi holatlarga nisbatan iste'zosi namoyon bo'ladi. U go'yoki kiborlar hayoti, ularning tutumi, hayotiy vaziyatlaridan bezgan, aslida esa unda bularga nisbatan jiddiy xohish ustuvorlik qiladi. Buni yigit sezib tursa-da, unga indamaydi. Qiz shunday hayotni istaydi, ammo bunga erishishga unda imkon yo'q, bu imkonsizlik uning o'ziga o'zi tasalli berish zamiridagi shunday hayotni qora ranglarda ko'rish bilan oshkor bo'lib turadi. Qizning xohish-istaklari o'zgacha, uning bu istak va mayllariga mos hayot uning uchun go'yo ro'yodek, u shunday hayot xayollari og'ushida yolg'iz qolish uchun ham shu xiyobondagi bekatda yo'lg'iz o'tiradi.

"Jeff Piters magnitining siri" hikoyasidagi obrazlar talqinida istehzo, davr va jamiyat holatining umumiy rakursida ko'zga tashlanadi. Burjuaziya hukmron bo'lgan jamiyatda oddiy xalq vakillarining ma'lum bir ishlarni amalga oshirishi imkonsizdek ko'rindi, Jeff Piters bunday jamiyatda yashab qolish uchun yo'l qidiradi. U har qanday ishni qilib qo'ygan, uning uchun qanday yo'l bilan amalga oshirilishi muhim emas, pul topish istagi yetakchi o'rinda turadi. Insonlar mehnat qilib, halol yo'l bilan, peshona terisi evaziga shu mablag'ni qo'lga kiritishi mumkin, biroz Jeff yashagan jamiyatda bu go'yoki imkonsizday tasavvur uyg'otadi. Merning kuyovi shu kichkina shaharchadagi yakka-yu yagona shifokor, uning mijozlari boshqalarga ketishini na mer, na uning o'zi xohlaydi, byurokratiyaning ustuvorligi, turli sun'iy to'siqlarning mavjudligi shunday yo'l tutishga undaydi go'yo. Jeff Piters merning asl maqsadini yaxshi anglaydi va u qilmoqchi bo'lgan yo'ldan boradi. Bizning adabiyotimizda G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida boyning ziqlanligi, uning "innankeyin-chi" degan so'rovidan bezgan bola "sopini o'zidan chiqarish" yo'lidan boradi. Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan "Uch yolg'ondan qirq yo'lg'on" usulidan foydalanadi, ya'ni boyning nozik joyini topib shu asosda uni jazolashga intiladi, uning boyligiga o't ketganidan gap ketganda boy bunga ishonadi hamda shum bolaning nayrangiga laqqa tushadi. O'Genrining yuqorida mazmuni keltirilgan hikoyasida ham xuddi shunday yo'l tutiladi, ya'ni merning o'zi tuzgan qopqonga o'zini tushirishadi. Istehzoning badiiy quvvati shundaki, o'z mayl va istaklariga o'ta berilib ketgan mer tovlamachilar tuzgan rejaning qurbaniga aylanadi.

"Cho'chqacha axloq" hikoyasidagi istehzo makon, odamlar orasidagi munosanbatlar tasvirida ko'zga tashlanadi. Jefferson Piters o'ziga ishonchli sherik topish maqsadida chekka bir shaharchaga boradi, u yerdagi odamlar tasvirida ham istehzo mavjud. U yerdagilar hatto Odam Ato haqidagi voqealardan bexabar, hamma o'zicha jannatda yashagan kabi. Shunday

pokiza, yomonliklardan xoli go'shaning odamlariga soliqchi emasligini uqtirish uchun bir haftaning ketishi ajablanarli hol. Teskari istehzo muallifning obraz nutqi ishorasi orqali balqib turadi. Har bir odam o'zi yashaydigan bu shaharchaning borligi bilan faxrlanadi, ular hech qayoqqa chiqib ketmaydilar ham. Qiziq tomoni shundaki, shunchalik pokdomon xalqning konstebli jinoyatchi Ruf tatamning jinoyatlarini oddiy hol sifatida gapirib beradi, uning qotilligi uchun atigi bir oy qamaganini hech qanday hissiyotlarsiz so'zlab beradi. Jefferson Ruf Tatamni ko'radi, ular orasidagi suhbatda ham xuddi shunday istehzoning betakror namunasini ilg'ash mumkin. Ruf Tatam o'zining cho'chqa o'g'risi ekanligidan faxrlanadi, bu borada erishgan yutuqlarini g'ururlanib gapiradi. Uning asl muddaosi keyinroq namoyon bo'ladi. Har qanday jamiyatda kimnidir o'zi bajarayotgan ishining foydaliligi, boshqa ishlardan ko'ra faxrliroq ekanini uqtirish xususiyati yetakchilik qiladi. Ruf Ttamning keying vaziyatlarda ham o'zini o'zgarishsiz tutishi Jeffersonda shubhalar paydo bo'lmasligiga sabab bo'ladi. Ikki hikoyada keltirilgan Jeff obrazidagi insonlar o'rtasidagi munosabatda yomonlikning hech qachon jazosiz qolmasligiga qaratilgan istehzosi o'z mazmun-mohiyatini to'laligicha akslantira olgan.

“Nyu-yorklik daydi: hikoyasidagi istehzo asarning oxiriga kelib bo'y ko'rsatadi. Jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalar, ijtimoiy muhitning barqaror emasligi asar yakunida o'z aksini topadi Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasidagi tasvirdan o'sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning nechog'lik mudhish ahvolda ekanligi anglashilsa, O'Genri asaridagi tasvirdan Nyu-york ko'chalaridan daydilarning talay ekanligi, ularning hayotiy holatlari politsiya xodimlariga ham ayon ekanligini istehzo bilan ifodalaydi. Jamiyat hayotining daydilarga munosabati uzoqroq muddat davomida o'zgarmas bo'lganligi boisidanmi, ezgulik yo'liga o'tmoqchi bo'lgan insonning oxir taqdiri oldingi harakatlariga bog'liq bo'lib qolganligini kuzatish mumkin.

“Birja dallolining sevgisi” hikoyasidagi kinoyaviy istehzo asar qahramonining ichki va tashqi qiyofasini izohlab berishga xizmat qilgan. O'z xizmat vazifasini astoydil ado etishga urinayotgan dallol uchun o'z manfaati boshqalar manfaati bilan bog'liq holda rivojlanishi muhim sanaladi.

Har qanday jamiyatda o'z xizmat vazifasini sidqidildan ado etishga harakat qiladigan odamlar uchun boshqa insoniy sezimlar bir qadar uzoqroq bo'lib boradi. Buni real hayot mehvarida tasvirlashga uringan adib har qanday insonning chuqur sezgilarida go'zal va nafis tuyg'ularning saqlanib qolishi lozimligiga ishora qiladi.

“Shaftoli va po'rtahol” hikoyasidagi qahramon boks bo'yicha yuqori natijalarga erishgan, salbiy natijalar unga begona. Uni hamma yaxshi ko'radi, hurmat qiladi. Shunday insonda ham o'z va'dasining ustidan chiqish uchun o'z sha'niga mos kelmaydigan ishlarni amalgalashirishga majbur bo'ladi. U politsiya inspektoriga ular qidirayotgan odamni topib berishni aytadi, bundan ko'zlangan maqsad sevimli kishisi undan shaftoli so'raganidadir. Asar yechimidagi paradox telba oshiqning shuncha qilgan harakatlari zoye ketganligini uqtirganday bo'ladi. U atigi bir dona shaftoli olib keladi, ammo xotini po'rtahol bo'lsa ham yeyishi mukinligini aytib, uni qiy nab qo'yanidan go'yoki biroz xijolat tortganday bo'ladi. Mag'lubiyatni qabul qila olmaydigan yosh bokschi uchun mana shu shaftolining olib kelinishi ham bir g'alaba belgisidir. Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasida ham shunga o'xshash holat uchraydi. Insonning mayllari har xil bo'ladi, ba'zilari uning tabiiy instiktlari bilan bog'liq bo'lsa, boshqalari ko'ngilning inja tuyg'ulari asosida ro'yobga chiqadigan mayllardir. Olim

Otaxonning "Mubtalo" va "Qodirova" kabi hikoyalarida insonning his-tuyg'ulari bilan bog'liq mayllarni ko'rishimiz mumkin. "Mubtalo" hikoyasidagi qahramonga eri tomonidan beriladigan e'tibor yetishmayotganday bo'ladi, bu hol bora-bora yuksala boradi. U uyiga qaytayotgan paytida ko'chalar, loy, hatto uyi ham unga yoqinqiramay boradi. Bunday mayllarning ortib borishi natijasida insonning o'zi ham shularning girdobiga tushib qolganligini o'zi ham sezmaydi, Tuhfani hamkasbi o'z mashinasida keltirib qo'ygan paytlarida ham shu maylning oshib borishi natijasida eri bo'limgan inson bilan yonma-yon ko'proq qolish, uning istaklariga bo'ysunish holatlari kuchayib boraveradi. "Qodirova" hikoyasidagi istehzo ochiq-oydin bo'rtib turmaydi. U she'rni yaxshi ko'radi, hattoki unashirilgan paytida ham bo'lg'usi kuyovning she'r yozishini aytib dugonasiga g'ururlanadi. Turmushga chiqqanidan so'ng bir tomondan erining uning mayliga xos bo'limgan tarzda uni qodirova deb chaqirishi, ikkinchi tomondan u endi she'r o'qib bermayotganligi uning hissiyotlariga salbiy ta'sir etadi. Eri unga she'rler o'qib berishni boshlaydi, uning ko'ngli bundan ravshan tortadi. U bir muddat she'r aytmay qo'yanida o'zini qo'yarga joy topolmay qoladi. Har qanday inson borki, u o'zi uchun eng yaqin deb hisoblagan odamidan mayllariga mos nimanidir kutadi.

N.Eshonqul qalamiga mansub "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi qariya obrazzi orqali obrazning istehzosi ayni ma'lum davr va jamiyatga qaratiladi. U doim nimadan noroziday ko'rindi. Hayotni faqat qora bo'yoqlarda ko'radi. Uning bunday holati boshalarga ham yuqumli bo'lishi mumkin. Tushkun kayfiyatning mavjudligi insonning hayotiy tamoyillariga ijobjiy ta'sir ko'rsatmaydi. Qo'shni ayol odamgarchilik yuzasidan uning uyiga ovqat kiritib turadi, u qanday xatoga yo'l qo'yan ekanki, o'g'li undan faqatgina nimaningdir tamasida uning yoniga keladi, hattoki uni uradi ham deb odamlar aytishadi. Chol o'z qobig'iga o'ralib olgan, o'z xayollar olamida yashaydi. Inson yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin, har ikkisi bo'lib ko'rganda ham jamiyatdan ijodiy javob ta'sirini olmasa, unga bu jiddiy ta'sir qiladi.

Chol yosh tarjimonga ikki rahbar haqidagi voqeani aytib beradi. Uning aytishicha, ikki rahbar bo'lgan: biri davlat buyurtmalarini bajarish uchun o'z qo'l ostidagi xodimlarga qattiq zulm o'tkazgan, majburiyatni uddalagan, ikkinchisi esa odamlarni o'ylab, qo'shib yozish orqali kishilarning og'irini yengil qilgan. Bundan qaysi biri yaxshi-yu, qaysi biri yomonligini aniq aytib bo'lmaydi. Balki, cholning o'zi bir zamonlar har ikki rahbar qiyofasida bo'lgandir?! Asarda epik pafos sifatida keltirilgan surat tasviri ham mana shu istehzoli qarashning samarasidir. Dastlabki suratda maymunni inson o'rmonдан yetaklab chiqish tasvirlangan. Bu orqali inson o'rmonдан maymunni chiqarib jamiyatda tarbiyalamoqchi bo'ladi, unga insoniy sifatlarni singdirishga harakat qiladi tarzidagi ma'noni uqish mumkin. Oxiri cholni maymun o'rmonga yetaklab kirishi esa, bu jamiyatdan, davrning qusurlaridan maymun bilan o'rmonga ketish afzalroq ko'rindi. Chol vafot etganidan so'ng ham og'li uning janozasiga kelmaydi. Qo'shni ayol undan uy olmoqchilagini, ayni shu cholning uyini olishini so'raganida u rad etadi. Hikoyadagi cholning uyi tasviri ham dilni xira qiladi, har bir tasvirda umidbaxshlikdan darak yo'q. Umidsiz inson barcha narsasidan mosuvvo bo'ladi Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasida ham yo'lg'iz qolgan insonga yashash ishtiyoqini aynan Umid bag'ishlaydi.

O'Genrining "Mo'jizaviy kulchalar" hikoyasida davr va jamiyatdan shikoyat elementlari kuzatilmaydi, ammo istehzoning nozik imkoniyatini ko'rish mumkin. Savdo xodimi nemis millatiga mansub kishiga har kuni ikki dona qotgan kulcha non sotadi. Bu hol har kun bir xilda takrorlanadi. Bundan sotuvchi ayol biroz xijolat tortadi, unga yaqin bo'lgisi, unga yordam bergisi keladi. Uning tashqi qiyofasidan rassom deb o'laydi, uning xayolariga kirib borish

maqsadida kartina ham chiqarib qo'yadi. Bir kuni uning qotgan kulcha nonlari ichiga saryog' solib beradi, uning xayolida o'sha nemis kishisidan minnatdorlik eshitish, rozi bo'lislash hissini ko'rishni istaydi. Vaziyat butunlay boshqa tomonga o'zgarib ketadi, ma'lum bo'lishicha, u odam katta loyiha ustida ishlayotgan, qotgan kulchalar esa ochirg'ichdan ham yaxshiroq naf keltirayotgan bo'ladi. Sariyog' qo'yilgan non butun loyiha chizmasini barbod qiladi. Shu o'rinda xulosa qilish mumkinki, gohida insonlarning yengil, qashshoqona, g'arib ko'ringan mayllariga daxl qilib bo'lmaydi. Uning "Yozilmagan hikoya" asarida insonning boshqalar uchun kezi kelganda o'zini ayamasligi lozimligiga urg'u berilgan. Qahramonlarning dastlabki munosabatidagi holat ham bir kishining boshqa shaxs mayllariga, nuqsonlariga doim ham istehzoli munosabatda bo'lish mumkin emasligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Istehtzo usulining barcha asarlarda birdek qo'llana olish imkoniyati, uning shaxs va jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni ko'rsata olishdagi ahamiyati, badiiy asarda tutgan o'rni hamda shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatda ibratlilik tamoyiliga tayangan holda istehzoning roli, unig tabiat, muallif va obrazlarning asl maqsadini, ko'zlangan natijaning tub mohiyatini ohib berishdagi imkoniyatlari aks ettirilgan.

### References:

1. O'Genri. Izbrannie noveli. M., 1978. 448 s.
2. Levidova I. O. Genri i yego novella. M., 1973. 255 s.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: Akademnashr, 2018. 459-b
4. Shukurova. S.Jon Stenbek va Nazar eshonqul asarlarida shaxs erki va jamiyat munosabatlarining badiiy falsafiy talqini. Fil.fan.bo'y.fal.dok. avtoreferati. Buxoro-2023.
5. Boltaev Sh.O., Rashidov U., Mahmudov Sh.K. Muhammad Ali – temurshunos olim. Buxoro, "Buxoro" nashriyoti, 2011, 44 bet.
6. Eshonqul N. San'at-1. Eshonqul N. Momoqo'shiq, T., 2010, 260-bet
7. <http://www.ziyouz.com>